



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



BARQAROR TARAQQIYOTDA AYOLLAR: ILM-FAN VA SIFATLI TA'LIM

Xolmatova Ziroatxon Anvarovna

Qo'qon DU "Pedagogika" kafedrasini mudiri, p.f.d., professor

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bugungi kunda mamlakatimizda yuz berayotgan o'zgarishlar, ayollar, hotin-qizlar masalalari va gender tengligi kabi masalalarning har qachongidanda muhim masalaga aylanib borayotganligi aks etgan. Shuningdek, ayollarimizni ilm-fanga jalb qilish, kasbiy faoliyatlarida ko'maklashish masalalari ham bayon etilgan.*

Kalit so'zlar. *Taraqqiyot, yuksalish, e'tibor, gender tengligi, mohiyat, oila, ilm-fan, kasbiy faoliyat, yoshlar.*

**WOMEN IN SUSTAINABLE DEVELOPMENT: SCIENCE AND QUALITY
EDUCATION**

Kholmatova Ziroatkxon Anvarovna

*Head of the Department of "Pedagogy" of Kokand State University,
DSc, Professor*

Abstract. *This article reflects the changes that are taking place in our country today, the issues of women, girls and gender equality are becoming more important than ever. Also, issues of attracting our women to science and helping them in their professional activities were also described.*

Keywords. *Progress, rise, attention, gender equality, essence, family, science, professional activity, youth.*

**ЖЕНЩИНЫ В УСТОЙЧИВОМ РАЗВИТИИ: НАУКА И КАЧЕСТВЕННОЕ
ОБРАЗОВАНИЕ**

Холматова Зироатхон Анваровна

*Заведующая кафедрой «Педагогика» Кокандского государственного
университета, доктор педагогических наук, профессор*

Абстрактный. *В данной статье отражены изменения, происходящие сегодня в нашей стране, вопросы женщин, девочек и гендерного равенства становятся как никогда актуальными. Также были описаны вопросы привлечения наших женщин в науку и помощи им в профессиональной деятельности.*



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



Ключевые слова. *Прогресс, подъем, внимание, гендерное равенство, сущность, семья, наука, профессиональная деятельность, молодежь.*

Kirish. Xalqimiz azal-azaldan Ona siymosini, ayol zotini yaratganning ulug‘ ne‘ mati, tengsiz mo‘‘jizasi, deb biladi, uni hamisha ardoqlab-asrab yashaydi. Yurtimiz zaminidagi “Bibixonim”, “Qizbibi”, “Modarixon”, “Qirqqiz” majmuasi kabi tabarruk me‘moriy obidalar ham ana shunday azaliy yuksak e‘tibordan dalolat beradi.

Ayni paytda biz insoniyat taraqqiyotiga unutilmas va beqiyos hissa qo‘shgan buyuk ajdodlarimizni dunyoga keltirib, mehr bilan tarbiyalagan, ularni ulug‘vor ishlarga ruhlantirib, kamarbasta bo‘lgan fozila ayollarimiz bilan albatta faxrlanamiz.

Ma‘lumki, har qanday jamiyat va davlatning qay darajada xalqparvar hamda adolatli ekani uning xotin-qizlarga bo‘lgan munosabati va g‘amxo‘rliги bilan belgilanadi.

Xalqimizni rozi qilishdek oliy maqsadga erishish uchun xotin-qizlarning qonuniy huquq va manfaatlarini ta‘minlash, ularning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-avgustdagi “Yoshlarni ilm-fan sohasiga jalb etish va ularning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4433-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-maydagi “Respublika hududlarida yoshlar texnoparklarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 313-sonli qarorida hududlarda yoshlarni ilm-fanga qiziqtirish, ilmiy-innovatsion faoliyatga keng jalb qilish, yoshlar texnoparklarini tashkil etish, oliy ta‘lim muassasalariga investitsiyalarni keng jalb qilish, pullik xizmatlar ko‘lamini kengaytirish va boshqa byudjetdan tashqari mablag‘lar hisobiga oliy ta‘lim muassasalarida texnopark, forsayt, texnologiyalar transferi, startap, akselerator markazlarini tashkil etish hamda ularni tegishli tarmoq, soha va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tadqiq qiluvchi va prognozlashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy markazlar tashkil etish kabi ustuvor vazifalar belgilab berilgan [1,2].

Tahlil va natijalar. Ma‘lumki, har qanday jamiyat va davlatning qay darajada xalqparvar hamda adolatli ekani uning xotin-qizlarga bo‘lgan munosabati va g‘amxo‘rliги bilan belgılanadi. Mamlakatimizda xalqni rozi qilish maqsadi yo‘lida xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini ta‘minlashga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Ularning o‘qishi, ishlashi, salomatligi, oilasi uchun sharoitlar yaxshilanmoqda.

Bu maqsadlar Taraqqiyot strategiyasining ham muhim yo‘nalishlaridan biri. Shunga muvofiq, 1-mart kuni o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida xotin-qizlar uchun yanada keng imkoniyatlar belgilandi. Bu vazifalarni tizimli va samarali amalga oshirish maqsadida, Bosh vazir o‘rinbosari lavozimi qayta tiklandi hamda Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi tashkil etildi.



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



“Hech kim mehr va e’tibordan chetda qolmaydi” degan ezgu tamoyil asosida, 2021-yilda 900 mingga yaqin xotin-qizlarga ijtimoiy-iqtisodiy, tibbiy, huquqiy va psixologik yordamlar ko‘rsatildi. Bu maqsadlar uchun budjetdan 2 trillion so‘m mablag‘ yo‘naltirildi. Xususan, 18 mingta ayollarga uy-joy xarid qilish uchun 400 milliard so‘m imtiyozli kreditlar ajratildi. Boquvchisini yo‘qotgan ayollarning farzandlari uchun bog‘cha xarajatlarini budjetdan qoplash tartibi joriy etildi.

Yana bir muhim raqamga e’tibor bering. Faqatgina 2021-yilning o‘zida xotin-qizlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash maqsadida 2 trillion so‘mdan ziyod kredit va subsidiyalar ajratildi. Natijada 320 mingdan ortiq opa-singillarimiz doimiy ish va daromadga ega bo‘ldilar.

Mamlakatimizda jamiyatning asosiy bo‘g‘ini hisoblangan mahalla va oila institutlarini mustahkamlash bo‘yicha ham e’tiborga molik ishlar olib borilmoqda.

Shuningdek, 2021-yilda ehtiyojmand oilalarga mansub 2 mingdan ziyod qizlar oliygohlarga davlat granti asosida qabul qilindi, yana shuncha talaba qizlarga kontrakt pullari to‘lab berildi.

Ayollar ta’limiga alohida e’tibor berayotganimiz tufayli o‘tgan yili oliy o‘quv yurtlariga qabul qilingan talabalarning 60 foizini xotin-qizlar tashkil etdi.

Agar bundan olti yil avval oliygohlarda 110 ming nafar qizlarimiz tahsil olishgan bo‘lsa, bugungi kunda ularning soni 400 ming nafarga yetdi yoki ularning ulushi 2016-yildagi 38 foizdan ayni paytga kelib qariyb 50 foizga yetdi.

Bu natijalar ham ushbu yo‘nalishdagi islohotlarimizning amaliy ifodasi, desam, o‘ylaymanki, sizlar ham fikringa qo‘shilasizlar.

Har qanday xalqning yetuklik darajasini, avvalo, ayollarning ilmiy-madaniy kamoloti belgilab berishi, oqila va o‘qimishli onalar millatning buyuk kelajagini yaratishlari hammamizga yaxshi ayon. Shu bois donishmandlar:

“Bitta qiz bolani o‘qitsangiz – butun oilani o‘qitgan bo‘lasiz”, deb bejiz ta’kidlamaganlar.

Respublikadagi 9,5 mingga yaqin mahalla raisining xotin-qizlar va oila bo‘yicha o‘rinbosarlari ham qo‘mita tizimiga o‘tkazildi. Har bir mahallada xotin-qizlar faoli lavozimi yangidan joriy qilindi. Bu orqali, opa-singillarimizning muammolari, dardu tashvishlari bilan doimiy shug‘ullanadigan adolatli va samarali tizim yaratildi.

2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Xotin-qizlar ta’limini qo‘llab-quvvatlash milliy dasturi qabul qilindi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan jamoatchilikka, avvalo, yoshlarga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsata oladigan, obro‘-e’tiborli ayollarni o‘z safida birlashtirgan “Oqila ayollar” harakati tashkil topmoqda. Shuningdek, barcha mehnat jamoalarida xotin-qizlarning muammolariga samarali yechim topish uchun “Ayollar kengashlari” tuzilmoqda.

Hozirgi kunda oliygohlarimizda 510 ming nafar talaba kunduzgi ta’lim shaklida o‘qimoqda (jami 820 ming nafar). Davlatimiz rahbari topshirig‘iga muvofiq, talabalar



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



bilan suhbat va so‘rovnomalar o‘tkazildi. Talabalarning 100 ming nafarga yaqini ishlash va qo‘shimcha daromad topishga ehtiyoji borligini bildirgan. Ayniqsa, ular orasida 7,5 ming chin yetim yoki nogironligi bo‘lgan hamda 4,5 ming nafar turli “daftarlar”ga kiritilgan talabalar bor.

– Oliygo‘h katta oila. Bu oilani rahbari - rektor. Ota-onalar eng katta boyligini, farzandini sizlarga topshirgan. Shuning uchun rektorlar har bir talaba bilan shaxsan uchrashishi shart. Bu borada haqiqiy holatni bilib, talabalarning oilaviy ahvoli, sharoiti, qanday o‘qiyapti, muammolari va takliflari, xullas, hammasi haqida har oyda hisobot beradi va bu masalaga shaxsan mas’ul bo‘ladi, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Qayd etilganidek, bugungi kunda talabalar ishlashi mumkin bo‘lgan 105 mingta vakant ish o‘rni mavjud. Ta’lim va xizmat ko‘rsatish sohasida – 22 mingtadan, sanoatda – 17 ming, sog‘liqni saqlashda – 9 ming, qurilish va qishloq xo‘jaligida – 6 mingtadan, moliya sohasida – 3 ming, aloqa va IT sohasida – 2,5 ming ish o‘rni bor.

ana bir masala – oliy o‘quv yurtlaridagi boshqaruv, texnik, xizmat ko‘rsatuvchi va o‘quv-yordamchi lavozimlari bo‘yicha mavjud vakant joylarda 3 mingdan ziyod talaba bandligini ta’minlash mumkin.

Toshkent tibbiyot akademiyasida 70 nafar talaba ish yurituvchi, kafedra laboranti, kutubxonachi, omborchi kabi lavozimlarda ishlamoqda. Lekin hozir oliygo‘hlardagi ko‘p lavozimlarga oliy ma’lumot bo‘lishi talab etiladi. Shu bois istisno tariqasida rektorlarga o‘z tizimidagi lavozimlarga talabani bilim va salohiyatidan kelib chiqib ishga joylashtirishga ruxsat etilishi belgilandi.

Bundan tashqari, barcha davlat tashkilotlari va muassasalarida talabalar uchun ishlashga ruxsat beriladigan bo‘ldi.

Masalan, oliygo‘hlar atrofidagi shahar maktablari va bog‘chalarida 13 ming vakant ish o‘rni mavjud. Mutasaddilarga bir oy muddatda kamida 10 ming nafar talabani ular uchun joylashuvi qulay bo‘lgan maktab va bog‘chalarga ishga joylashtirish choralarini ko‘rish vazifasi qo‘yildi.

Markaziy bank tajribasi asosida talabalarning haq to‘lanadigan stajirovkalarini tashkil etish va ularning yakunida eng yaxshi stajerlarga ish taklif etish tizimi iqtisodiyot, moliya, qurilish, energetika, qishloq va suv xo‘jaligi vazirliklari, soliq, kadastr idoralari ham joriy etilishi belgilandi.

Ushbu yangi tizim orqali, har yili 3 ming nafar talabaning bandligi ta’minlanadi.

Xulosa. Xulosa o‘rnida shuni aytib o‘tish joizki, bugungi kunda mamlakatimizda hotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularni ilm-fanga jalb qilish va shu asnodda sog‘lom oila-sog‘lom jamiyat tamoilini keng joriy qilishga e’tibor berilmoqda. Barchamizga yaxshi ma’lumki, yuksak taraqqiyotga erishi, provardida Yangi O‘zbekistonni barpo etish eng avvalo oiladan boshlanadi. Oila esa bu ayol demakdir.

Agar biz maktab bitiruvchilari hayotda nimani xohlashlarini biladigan muvaffaqiyatli odamlar bo‘lishini istasak, u holda bolalar tarbiyasida tadqiqotchi xulq-atvorini



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



rivojlantirishga alohida e'tibor qaratishimiz lozim. Demak, biz, yoshlarni maktab davridayoq ilm-fanga, ilmiy-innovatsion faoliyatga qiziqтира olsak, yoshlarni, OTM ga o'qishga kirgan maktab bitiruvchilarini ilmiy-faoliyatga jalb qila olamiz!

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-avgustdagi "Yoshlarni ilm-fan sohasiga jalb etish va ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4433-sonli qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-maydagi "Respublika hududlarida yoshlar texnoparklarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 313-sonli qarori.

3. B.M. Toshmamatov, G.N. Uzakov, S.M. Shomuratova, L.Z. Temirova, "Calculation of energy efficiency of the solar installation for the processing of municipal solid waste", International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology, Vol. 6, Issue 12, pp 12097-12102, December 2019, India.

4. Uzakov G.N., Toshmamatov B.M, Mamedova D.N., Temirova L. Experimental solar installation for the processing of municipal solid waste EPRA International Journal of Research and Development (IJRD) Volume: 5 | Issue: 3 | March 2020 - Peer Reviewed Journal. SJIF Impact Factor: 6.260 | ISI I.F.Value:1.241 | Journal

5. https://uz.wikipedia.org/wiki/Gender_tengligi

6. heconversation.com/tudge-stands-aside-while-claim-of-kicking-formerstaffer-investigated-173064